

IRODA VA UNING TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI

Xasanova Iroda Alimjonovna – JDPU,
o'qituvchi

Toshtemirova Xumora – JDPU, Amaliy
psixologiya yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iroda va uning inson hayotida tutgan o'rni, kichik maktab yoshida psixoloik rivojlanish va irodaning o'quvchilarda rivojlanishi hamda ta'limda irodaning tutgan o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: iroda, kichik maktab yoshi, o'quvchi, ta'lim, o'zlashtirish, xulq-atvor, o'qish, ehtiyoj, motiv, qiziqish, mayl, mehnat, boshlang'ich sinf, shaxs, tarbiya, maqsad.

Аннотация: В данной статье освещены воля и ее роль в жизни человека, психологическое развитие и развитие воли у учащихся младшего школьного возраста, а также роль воли в образовании.

Ключевые слова: воля, младший школьный возраст, ученик, образование, мастерство, поведение, учеба, потребность, мотив, интерес, склонность, труд, начальный класс, личность, воспитание, цель.

Abstract: This article highlights the will and its role in human life, the psychological development and development of the will in primary school students, as well as the role of the will in education.

Key words: will, primary school age, student, education, skill, behavior, study, need, motive, interest, inclination, work, primary school, personality, upbringing, goal.

Ma'lumki o'quvchilar ta'lim jarayonida qiyinchiliklar vujudga keladi, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday jarayon ayniqsa boshlang'ich sinflarda anchagina murakkab kechadi. Bunda o'qituvchining muhim vazifasi – o'quvchilar faoliyatini, ichki anglanlangan motivlarini, xulq-atvorini shunchaki boshqarish bilan cheklanmasdan, balki ular shahsini shakllantirishga, ularda maqsad qo'ya olish, qiziqish uyg'otish va idiallarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Umumta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi bolalarning irodaviy zo'r berishlari ularning topshiriqlarni yechishga intilishlarida, o'ziga buyruq berishida, o'zini qo'lga olishida o'z ifodasini topadi.

Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo'r berish bilan uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi. Maktabga borish oldidan bola, qoidaga ko'ra, o'z hayotining eng muhim davriga, ya'ni maktab tomonidan qo'yiladigan turli-tuman talablarni bajarishga, boshqacha qilib aytganda, ta'lim olishga ham jismoniy, ham psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Bunda bola ta'lim-tarbiya jarayonidagi turli xil talablarga amal qilish yuzasidan ma'lum bir qarorga

kelishi, uni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni yengish bilan ro'yobga chiqadi. Bola maktabga kirishi bilan uning butun hayot tartibi, ijtimoiy holati, jamoadagi, oiladagi ahvoli keskin o'zgarib ketadi. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish, bilim orttirish vazifasidan iborat bo'lib qoladi.

O'qish – boladan ma'lum uyushqoqlikni, intizomlilikni, anchagina irodaviy zo'r berishlikni talab qiladigan jiddiy mehnatdir. Turli ehtiyojlar tufayli vujudga keladigan, maqsadga yo'nalganlik hususiyatini kasb etadigan bolaning faolligi o'zining tuzilishi, shakli, rang-barang bo'lgan harakatlar bilan ta'lim muassasasi talabalriga mos (maqsadga muvofiq) kelmaganligi sababli qayta quradi, takomillashtiradi, ta'lim olishga bo'ysundiriladi.

Ehtiyoj, motiv, qiziqish, anglashilmagan, anglashilgan mayllar negizidan kelib chiqadigan barcha ko'rinishdagi harakatlar o'zlarining yuzaga kelishiga binoan ixtiyorsiz harakatlar anglangan yoki yetarli darajada anglanmagan istak, xohish, tilak, mayl va shu kabilarning ichki turtki ta'sirida paydo bo'lishi natijasida ro'yobga chiqariladi. Mazkur istak va uning boshqa shakllari impulsiv xususiyatga ega bo'lib, inson tomonidan anglanmaganligi uchun ma'lum ob'yektga qaratish yuzasidan rejalashtirilmagan, hatto ko'zda tutilmagan bo'ladi. Shuning uchun, kichik maktab yoshidagi o'quvchi xarakteri o'zining ayrim xususiyatlari bilan farq qiladi.

Dastavval ular harakterining impulsivligi (beixtiyorligini), ularning o'ylamasdan va barcha holatlarni hisobga olmay, bevosita impulslar, mayllar va tasodifiy sabablar ta'siri ostida darxol harakat qilishga moyilliklarni ko'rsatib o'tamiz. Bu hodisaning sababi bolaning yoshi bilan bog'liq hatti-harakatlarni iroda orqali boshqarishning sustligi va aktiv tashqi vaziyatga bo'lgan ehtiyojdir. Ammo, bolaning irodasi faqat tashqi hatti-harakatlarda namoyon bo'lib qolmasdan, balki ortiqcha, noto'g'ri harakatlarni qilmasligida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Irodaviy sifatlarning shakllanmaganligi kichik maktab yoshining o'ziga xos hususiyati hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchi (hususan 7-10 yoshli bolalar) o'z oldiga qo'ygan maqsadini uzoq muddat davomida ko'zlab borishini, keyinchalik va to'siqlarni qat'iyatlik bilan engishni hali bilmaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda o'z kuchiga va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni yo'qotib qo'yishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar harakterida ko'p uchraydigan kamchiliklar, ya'ni ularning injiqligi va qaysarligi oila tarbiyasidagi nuqsonlar oqibatidir. Bunday bola o'zining barcha talab va hohishlari qondirilishiga odatlanib qolgan bo'ladi.

Boladagi injiqlik va qaysarlik uni ta'lim muassasasi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan qat'iy talablarga, "O'zi hohlagan ishi" ni emas, balki "kerakli ish" ni bajarish zarurligiga qarshi qaratilgan o'ziga hos norozilik shakllaridir. Bolalarning ta'lim davridagi barcha harakterlari to'la anglanmagan yoki etarli anglangan darajada ekanligidan qat'iy nazar ular ob'ektiv jihatdan psixikasining boshqa shakllari bilan izchil bog'lanishdan iboratdir. Ya'ni, bolaning irodaviy harakteri

har tomonlama ditermenizmga, binobarin sababiy bog‘lanish qonuniga bevosita bo‘ysunadi.

Bolaning irodasi ijtimoiy hayotiy va ta‘lim-tarbiya sharoitida turli axborotlar natijasi sifatida yuzaga kelgan motivlarning hususiyati va maqsad bilan uyg‘unlashgandir. Iroda bolaning o‘z hatti harakatlarini (xulq-atvorini) o‘zi boshqarishni, u yoki bu hususiyatli intilish va istaklarni tormozlashni talab qiladi. Binobarin, u anglangan turlicha karakterlar tizimi mujassam bo‘lishni nazarda tutadi. Irodaviy faoliyat, mohiyat shunda ko‘zga tashlanadiki, bunda bola o‘zini boshqaradi, o‘zini qo‘lga oladi, o‘zining hususiy ihtiyorsiz ipmulsiv tomonlarini nazorat etadi, hatto zarurat tug‘ilsa u holda ularni tomoman yo‘qotadi ham. Iroda paydo bo‘lishining bosh omili inson tomonidan faoliyatining turli tarkiblarining irodaviy karakterlarini tizimli tarzda tadbiq etilishi, bunday ish – harakatlarda ong bilan mujassamlashuvchi shaxsning faolligidir.

Ma‘lumki, o‘zlashtirishning samaradorligi o‘quvchilarning irodaviy zo‘r berishi, anglashilgan o‘quv motiviga bevosita bog‘liq. Madomiki, shunday ekan ularni qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatish, ayrim paytda duch keladigan muvaffaqiyatsizliklar olidida dovdirab qolmasdan, balki ularni o‘zini-o‘zi idora qilishga o‘rgatish ayni muddaodir. Buning uchun ularda qiyinchiliklarni yenga olish o‘quvini, o‘zini-o‘zi qo‘lga olish fazilatini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun ta‘lim-tarbiyani tashkil etishda ularning irodaviy sifatlarini o‘stirishga alohida e‘tibor berilishi lozim. Buning uchun quyidagi ish – amallarini rejalashtirish maqsadga muvofiq:

- aniq va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadlarni ko‘zlashga o‘rgatish;
- burch va ma‘suliyat hissini shakllantirish;
- maqsadga intilish va istakni ro‘yobga chiqarish mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- o‘z kuchiga ishonch tuyg‘usini tarkib toptirish uchun maxsus psixotreninglar (ichki va tashqi to‘siqlarni yengishni mashq qilish, turli vaziyatlarda ya‘ni irodaviylik talab qiladigan mashqlarni qo‘llash;
- o‘z faoliyati maxsuliga va xulq-atvoriga baho berish bilan shug‘ulantirish;
- kun tartibi bo‘yicha barcha xarakatlarni amalga oshirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta‘lim o‘quvchilarning asosiy faoliyati ekan ta‘limni sifatli bo‘lishiga e‘tibor berish va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga xos ravishda psixologik rivojlanishini tashkil qilish hozirgi kun talabi bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya.T. 2002 yil.
2. G‘oziyev E. Yosh davrlari psixologiyasi.T. 1994 yil.
3. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.T. 1999 yil.
4. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot.- Toshkent: Moliya nashriyoti. 2003 yil.
- 5.Qodirova, M., & Raxmonov, A. (2023). O‘SMIRLARGA XOS NIZOLI VAZIYATLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK TAHLILI. Журнал Педагогики

и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8465>

6.Qodirova, M., & Nasimov, D. (2023). PSIXOLOGIYADA QO'RQUV MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILISHI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7725>

7.Qodirova, M. (2023). DEVELOPMENT OF COGNITIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN. *Science and innovation*, 2(B4), 258-261.

8.И.А.Хасанова. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ТАФАККУР ЖАРАЁНЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРИНИНГ ЎРНИ. *EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(12), 186–190. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7339056>

9.Xasanova, I.A (2022). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHINING OLDINI OLISHDA RUHIY TARBIYA USULLARIDAN FOYDALANISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7452>

10.Xasanova, I. (2022). «МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA ТАФАККУР ЖАРAYONLARINI RIVOJLANISHTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI». Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7451>

11. Xasanova, I. (2022). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHINING OLDINI OLISHDA RUHIY TARBIYA USULLARIDAN FOYDALANISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7452>

12.Kamolova, S. U., Shakarbaeva, S. A., Yuldashev, S. A., & Ochilov, C. Q. (2020). The Essence Of The Content Of Enriching The Scientific Outlook Of Future Teachers. *Essence*, 29(8), 3593-3598.

13.Мунарова, Р. У. (2016). Камолова Ширин Усаровна, Шакарбоева Шахноза Абдулакимовна, Каршибоева Дилфуза Бурлиевна, & Алимкулов Сирожиддин Олимжон ўғли (2016). *Великие мыслители Средней Азии о воспитании гармоничного и всесторонне развитого поколения. Проблемы педагогики*, (2 (13)), 17-19.

14.Usarovna, K. S., Muhammedovna, Y. F., Shodiyevna, O. D., & Shakhnoza, S. (2022). The Importance of Cognitive Processes in the Formation of a Scientific Worldview among Students. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(2), 78-83.

15.Abdulakimovna, S. S. (2022). Social-Psychological Characteristics Of Professional SelfDevelopment Of Future Teachers. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 14, 138-140.

16.Abdulakimovna, S. S. (2021). Teachers self-development as a criterion for increasing professional competence. *World Bulletin of Social Sciences*, 3(10), 58-60.

17.Munarova, R. U. (2016). Kamolova Sh. U., Shakarboeva Sh. A., Karshiboeva DB, Alimkulov SOU (2016) Velikie misliteli Sredney Azii o vospitanii garmonichnogo i vsestoronne razvitogo pokoleniya. *Problemi pedagogiki*, (2), 13.

18.Abdulakimovna, S. S. (2022). Social-Psychological Characteristics Of Professional SelfDevelopment Of Future Teachers. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 14, 138-140.

19.Shakarboyeva, S. (2022). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(2).

20.Shakarboyeva, S. (2021). БЎЛҒУСИ ПЕДАГОГЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1).

21.Шакарбоева, Ш. А. (2021). САМОРАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ. In *Стратегия научно-технологического развития-2021* (pp. 39-40).

22.Шакарбоева, Ш. А. ПЕДАГОГИКА & ПСИХОЛОГИЯ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ПЕДАГОГИКА*, (1), 61-64.

23.O'risheva, P. (2024). O'SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY O'ZGARISHLAR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 161-167. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9559>

24.Shakarboyeva, & O'ktamova , O. (2024). TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASASI NAMKORLIKLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 139-147. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9555>

25.Shakarboyeva, & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 148-154. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9556>

26.O'risheva, P. (2024). O'SMIR XULQ-ATVORIDAGI SALBIY O'ZGARISHLAR. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 4(1), 161-167. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9559>

27.Odiljonova, K. (2023). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B4), 267-272.

28.Odiljonova, K. (2023). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B4), 267-272.

29.Shakarboyeva, & Жасурова, Н. (2024). ЎСМИРЛАРДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8831>

30.Shakarboyeva. (2024). O‘SMIRLIK DAVRIDAGI SUITSIDNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8726>

31.Shakarboyeva, & Худойкулова , Г. (2024). БОШЛАНГИЧ СИНОФЛАРДА ЧЕТ ТИЛИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА ЎРГАНИШНИНГ ЁШГА ОИД ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8832>

32.Nodira, F. (2018). Professionally significant qualities and skills of a teacher of foreign languages. *Достижения науки и образования*, 1(7 (29)), 83-85.

33.O‘risheva, P., & Jiyanberdiyev, M. (2023). PSIXOLOGIYA FANLARINI OQITISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 3(1).

34.O‘risheva, P. (2023). SHAXS TOLERANTLIK XUSUSIYATININI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (I).

35.O‘risheva, P. (2022). THE DEVELOPMENT PROCESS OF A CHILD'S SELF-CONCEPTION AND MOTIVATION AREA. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 2(6).

36.Ўришева, П. (2022). РОЛЬ МУЛЬТМИДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(12), 559-562.

37.QIZI, O. R. P. G. A. (2022). ILK O‘SPIRIN YOSHIDA PSIXOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(1), 32-36.

38.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>

39.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 4(1), 119-125. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9552>